



ADABIYOT TERMINLARINI O‘QITISHDA KOGNITIV-DISKURSIV YONDASHUVNING RAQAMLI MODELI

Abdullayev F.

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
nodavlat ta’lim muassasasi samarqand*

kampusi stajyor-o‘qituvchisi

+998993383070

abdullayevf1987@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyot terminlarini o‘qitishda kognitiv-diskursiv yondashuvning nazariy asoslari hamda uning raqamli modeli ishlab chiqish masalalari yoritiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, raqamli platformalar asosida terminlarni o‘zlashtirish jarayonini samarali tashkil etish yo‘llari ko‘rsatib beriladi. Kognitiv faoliyat, diskurs tahlili va interaktiv metodlar integratsiyasi asosida adabiy tushunchalarni chuqur anglash mexanizmi taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: adabiyot terminlari, kognitiv yondashuv, diskurs, raqamli model, interaktiv metod, gamifikatsiya, kompetensiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы когнитивно-дискурсивного подхода к обучению литературной терминологии и разработка его цифровой модели. Показаны способы эффективной организации процесса освоения терминов на основе современных педагогических технологий, в частности, цифровых платформ. Предложен механизм глубокого понимания литературных понятий, основанный на интеграции познавательной деятельности, дискурсивного анализа и интерактивных методов.



Ключевые слова: литературные термины, когнитивный подход, дискурс, цифровая модель, интерактивный метод, геймификация, компетентность.

Abstract. This article discusses the theoretical foundations of the cognitive-discursive approach to teaching literary terms and the development of its digital model. It shows ways to effectively organize the process of mastering terms based on modern pedagogical technologies, in particular, digital platforms. It proposes a mechanism for deep understanding of literary concepts based on the integration of cognitive activity, discourse analysis, and interactive methods.

Keywords: literary terms, cognitive approach, discourse, digital model, interactive method, gamification, competence.

Bugungi ta'lim jarayonida adabiyot terminlarini o'qitish nafaqat nazariy bilim berish, balki o'quvchilarda analitik tafakkur, talqin qilish, izohlash va mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishni talab etadi. An'anaviy izohli usul terminlarni mexanik yodlashga olib keladi, natijada ularning amaliy qo'llanishi sustlashadi.

Shu bois adabiyot terminlarini o'qitishda kognitiv-diskursiv yondashuvni qo'llash dolzarb masalalardan biridir. Mazkur yondashuv til birliklarini tafakkur jarayoni va nutqiy kontekstda o'rganishni nazarda tutadi.

Kognitiv-diskursiv yondashuv til va tafakkur birligi hamda nutqiy jarayonning ijtimoiy-madaniy tabiatini integrativ tarzda talqin qiluvchi ilmiy yo'nalishdir. Mazkur yondashuv kognitiv lingvistika, diskurs nazariyasi, pragmalingvistika va psixolingvistika kesishgan nuqtada shakllangan bo'lib, til birliklarini inson ongidagi konseptual tizim hamda kommunikativ vaziyat bilan uzviy bog'liq holda o'rganadi.



Kognitiv lingvistika asoschilari sifatida George Lakoff va Ronald Langacker tilni inson tafakkuri mahsuli sifatida talqin qiladilar. Ularning qarashlariga ko‘ra, har bir til birligi ongda konseptual tizim bilan bog‘liq.

Diskurs nazariyasi esa matnni kommunikativ jarayon mahsuli sifatida ko‘rib chiqadi. Bu borada Teun A. van Dijk diskursni ijtimoiy-kognitiv hodisa sifatida izohlaydi.

Adabiyot terminlari faqat ta‘rif orqali emas, balki badiiy matn tarkibidagi funksional vazifasi orqali o‘zlashtirilganda samarali bo‘ladi.

Adabiyot terminlarini o‘qitishda kognitiv jarayonlar o‘quvchining bilimni qabul qilishi, qayta ishlashi, konseptual tizimga joylashtirishi va nutqiy faoliyatda qo‘llashi bilan bog‘liq murakkab tafakkur bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Kognitiv yondashuvga ko‘ra, termin — bu shunchaki ta‘rif emas, balki ongda shakllanadigan konseptual modeldir.

Bu bosqichda o‘quvchi yangi termini eshitadi yoki o‘qiydi va uni mavjud bilimlari bilan taqqoslaydi. Psixolog olim Lev Vygotsky ta‘kidlaganidek, yangi bilim avvalgi tajriba bilan integratsiya jarayonida o‘zlashtiriladi. Masalan, “konflikt” termini berilganda o‘quvchi uni kundalik hayotdagi qarama-qarshilik tushunchasi bilan bog‘laydi. Shundan so‘nggina badiiy asardagi estetik vazifasi anglashila boshlaydi.

Kognitiv yondashuv quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- **Konseptual anglash** – termin ortidagi tushunchani ongda shakllantirish.
- **Assotsiativ bog‘lanish** – termini real matn bilan bog‘lash.
- **Diskursiv tahlil** – terminning matndagi vazifasini aniqlash.
- **Refleksiya** – o‘quvchining shaxsiy talqini va xulosasi.

Masalan, “metafora” terminini o‘rgatishda uni shunchaki “ko‘chma ma‘no” deb ta‘riflash emas, balki Alisher Navoiy yoki Abdulla Qahhor asarlaridagi real misollar asosida tahlil qilish samaraliroqdir.



Raqamli modelning tuzilishi. Kognitiv-diskursiv yondashuv asosida raqamli model quyidagi komponentlardan iborat bo‘lishi mumkin:

1-blok. Motivatsion bosqich:

- Interaktiv savol-javob;
- QR-kod orqali matnga kirish;
- Onlayn so‘rov.

2-blok. Kognitiv anglash:

- Termin xaritasi;
- Video-izoh;
- Infografika.

3-blok. Diskursiv tahlil:

- Raqamli matn ustida izoh qo‘yish;
- “Gallery walk” onlayn variant;
- Matn fragmentini annotatsiya qilish.

4-blok. Reflektiv baholash:

- Test;
- “Sinkveyn” yaratish;
- Gamifikatsion topshiriqlar.

Modelning afzalliklari shundaki, terminlarni kontekstda o‘zlashtirish hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdan iborat. Raqamli savodxonlikni oshirish ham o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirishga yordam beradi.

Adabiyot terminlarini o‘qitishda kognitiv-diskursiv yondashuvning raqamli modeli o‘quvchilarda chuqur anglash, tahlil qilish va mustaqil talqin ko‘nikmalarini shakllantiradi. Terminlarni izolyatsiyada emas, balki diskurs doirasida o‘rganish ularning amaliy ahamiyatini oshiradi. Raqamli vositalar esa mazkur jarayonni interaktiv va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Kelgusida mazkur modelni maktab va oliy ta’lim bosqichlarida tajriba-sinovdan o‘tkazish hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
2. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
3. Yo‘ldoshev B. Matn lingvistikasi asoslari. Toshkent: Fan, 2008.
4. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2014. 2011.